



SOLIQ TIZIMINI ISLOH QILISHDA SOLIQ NAZORATI SHAKLLARI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Valiyeva Sayyora Xushbaqovna

Xalqaro moliya texnologiyalari va fanlari maktabi

ORCID: 0009-0000-3342-1264

Sayyora3001@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizda soliq tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, ularning natijalari, soliq tizimini yanada takomillashtirishda soliq nazorati shakllari va ahamiyati xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari bilan birga o'rganildi. Soliq nazoratini samarali ta'minlash bo'yicha takliflar va xulosalar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: soliq, tushum, soliq nazorati, iqtisodiyot, samaradorlik tekshiruv, imtiyoz, soliq yuki.

ФОРМЫ НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ И ПУТИ ЕГО СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРИ РЕФОРМИРОВАНИИ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ

Валиева Сайёра Хушбаковна

Международная школа финансовых технологий и науки

Аннотация. В статье изучены проводимые в нашей стране реформы по реформированию налоговой системы, их результаты, формы и значение налогового контроля в дальнейшем совершенствовании налоговой системы наряду с научно-теоретическими взглядами зарубежных и отечественных ученых. Сделаны предложения и выводы по обеспечению эффективного налогового контроля.

Ключевые слова: налог, доходы, налоговый контроль, экономика, проверка эффективности, льготы, налоговое бремя.

FORMS OF TAX CONTROL IN THE REFORM OF THE TAX SYSTEM AND WAYS TO IMPROVE IT

Valieva Sayyora Khushbakovna

International School of Finance Technology and Science

Annotation. The article studied the reforms carried out in our country on the reform of the tax system, their results, the forms and importance of tax control in the further improvement of the tax system along with the scientific-theoretical views of foreign and domestic scientists. Proposals and conclusions have been made to ensure effective tax control.

Keywords: tax, income, tax control, economics, efficiency check, benefits, tax burden.

Kirish.

Respublikamizda bugungi kungacha olib borilgan islohotlar barcha sohalarni qamrab olib, sohalarning rivojlanishib borishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, har bir faoliyat turi bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, sohaning uslubiy ta'minoti yaratib berildi. Jumladan, soliq nazorati faoliyati bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar bugungi kunda nazorat bo'yicha yetarli uslubiy ta'minot mavjudligini ko'rsatmoqda. Mazkur soha bo'yicha qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlari sohaning uslubiy ta'minoti yaratilganligidan dalolat beradi.

Soliq nazorati samaradorligini baholashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, soliq nazorati va uning shakli bo'lgan soliq tekshiruvlarining konseptual xususiyatlarini ochib berish, ularning samarali zamonaviy usul va vositalarini joriy etish, soliq tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni milliy soliq tizimiga tatbiq etish kabilar bu boradagi ilmiy-tadqiqot ishlarining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Germaniyada soliq tekshiruvlarini o'tkazish bo'yicha soliq qonunchiligiga muvofiq, soliq organi rahbari har yili va har chorakda soliq tekshiruvlari rejalarini tasdiqlaydi (Maxmatrayemov, 2024). Yuqori soliq organlari bunday rejalarini ishlab chiqishda ishtirok etish huquqiga ega emas, lekin ular mustaqil ravishda keng tuzilmaga ega bo'lgan alohida soliq to'lovchilarni tekshirishlari mumkin.

Ma'lumotlarga ko'ra ba'zi rivojlangan davlatlar soliq nazoratini amalga oshirishda, soliq to'lovchilarning soliq madaniyatini oshirishga harakat qilishadi. Bu ham ijobiy natijalarga oli keladi.

Soliq madaniyatini shakllantirish uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u soliq to'lovchining xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadigan subyektiv va obyektiv omillar, shuningdek, soliq to'lovchi va soliq organlari o'rtasidagi munosabatlarning shakllari bilan belgilanadi, bu davlat soliq tizimini rivojlanishiga yordam beradi. Soliq munosabatlarining yuqori darajaga ega bo'lganligi soliq tushumlarining o'sishiga yordam beradi va ular, o'z navbatida, davlat byudjetining asosiy daromad manbai hisoblanadi.

Soliqlarning taqchilligi turli xil salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga olib keladi. Shuning uchun ham soliq madaniyatini takomillashtirish butun mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi hal qilinishiga bog'liq bo'lgan muhim muammolardan biridir. Soliq tizimining madaniy tarkibiy qismining ta'siri juda katta. Davlat tomonidan bunday huquqbuzarliklarni aniqlash chora-tadbirlarini moliyalashtirish jarayonidan ko'ra, soliqqa oid huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadga muvofiqroq bo'ladi (Tuymayev, 2024).

Tadqiqot metodologiyasi.

Soliq nazorati shakllarini o'rganishda analiz, sintez, induksiya va deduksiya, qiyoslash usullari qo'llanildi. Xorijiy va mahalliy ilmiy-nazariy manbalar o'rganilib, ma'lumotlarning analitik tadqiqot usullari yordamida tegishli xulosa va takliflar shakllantirildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Mamlakatlar uchun turli xalqaro tuzilmalar orqali soliq to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini ko'rib chiqish bilvosita jihat bo'lib qolmoqda deb keltiradi Khoruzhy (2020). Binobarin, bu holatni o'rganish va uning oqimidan milliy soliq bazasini himoya qilish amaliy jihatlari ishlab chiqish bo'yicha batafsil yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Awasthi (2018) soliq nazoratining yuqori darajadagi murakkabligi, soliqning zaif yoki samarasiz bajarilishi, xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishda rasmiy bank kanallari orqali to'lovlarni amalga oshirish uchun imtiyozlarning yo'qligi norasmiylik darajasiga ta'sir qiluvchi omillardan biridir deb biladi.

Rossiyalik olim Dolgobayeva (2019) soliq nazoratining mohiyati moliyaviy nazoratning tarkibiy qismi sifatida moliyaviy soliqni va xo'jalik yurituvchi subyektlar va boshqaruvning tegishli masalalarini uni tashkil etish va o'tkazishning o'ziga xos shakllari va usullaridan foydalangan holda va asosan davlat byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni safarbar

qilish hisobiga tekshirish bo'yicha harakatlar va operatsiyalar majmuidir, soliq nazoratini asosiy funksiyasini amalga oshirish fiskal siyosatligini aytib o'tgan.

Soliq nazorati, shubhasiz, davlatning iqtisodiy sohasini rivojlantirish uchun zarur vosita ekanligini Farikova (2019) keltirgan. Ma'lumki, byudjetga soliq tushumlari mamlakat daromadlarining asosiy qismini tashkil qiladi. Shu munosabat bilan soliq nazorati instituti umuman iqtisodiy tizimni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi deb biladi.

Mamajonov (2024) fikricha, soliq stavkalarini pasaytirgan holda soliq tushumlarini oshirishda soliq ma'murchiligi samaradorligini oshirishda soliq madaniyatini oshirish, soliq normativlarini soddalashtirish, soliq ma'murchiligi jarayonlarini avtomatlashtirilishini takomillashtirish yaxshi natija berishi mumkin.

Djamalov (2023) soliq munosabatlari ishtirokchilari xulq-atvorining o'zaro ta'siri sharoitida soliq nazoratini tashkil etish va uslubiy ta'minlashning konseptual jihatdan yangi yondashuvlari faol tadqiq etgan.

Isayev (2023) soliq nazoratining kameral soliq tekshiruvi, sayyor soliq tekshiruvi va soliq auditi kabi turlari allaqachon amaliyotga qo'llanib kelinmoqda va ular bugun soliq to'lovchi tomonidan soliq majburiyatlarining bajarish holatiga qarab amalga oshirib kelinmoqda. Soliq to'lovchilar soliq xavfi darajasini aniqlash mezonlari va soliq to'lovchilarni toifalarga ajratish tartibiga ko'ra soliq xavfi darajasiga qarab past, o'rta va yuqori xavfli toifalarga ajratishni ma'qullagan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ma'lumki, soliqqa tortishning eng muhim muammolaridan biri bu sun'iy bankrotlik yo'li bilan amalga oshirilayotgan soliq to'lashdan bo'yin tovlashning sezilarli ko'lami hisoblanadi, korxonalar tomonidan QQSni qaytarish uchun taqdim etilgan hujjatlarni qalbakilashtirish, soliq to'lovchilarning mavjud soliqqa tortish tizimiga salbiy munosabatda bo'lgan axloqiy va psixologik holati ta'sir qiladi. Shu bilan birga, tartibga soluvchi qoidalarga ommaviy ravishda rioya qilmaslikka olib keladi, davlatga tuzatib bo'lmaydigan moddiy zarar yetkazadi va soliq jinoyatlarini sodir etishga yordam beradi.

Bunday holat ko'p jihatdan aholining soliq madaniyatining pastligi bilan izohlanadi. Ta'kidlash joizki, davlat va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ishonchsizlik, soliq xizmati organlari xodimlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi muloqotni yuqori soliq madaniyati talablariga rioya qilgan holda chuqurlashtirmasdan turib, demokratiya taraqqiyotini ta'minlab bo'lmaydi.

Soliq tizimini isloh qilishda soliq nazorati shakllarini tahlilini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu shakllar soliqni to'lash, hisobga olish va nazorat qilishning samaradorligini ta'minlaydi. O'zbekistondagi soliq nazorati shakllari va ularning asosiy xususiyatlari quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Hujjatlar nazorati: a) soliq hisobotlari tekshirilishi: Soliq to'lovchilarning taqdim etgan hisobotlari va deklaratsiyalari tekshiriladi. Bu tekshirishlar soliq to'lovchilarning aniqlik va to'g'ri hisobot berishini ta'minlashga qaratilgan; b) qo'shilgan hujjatlarning tekshirilishi: Soliq organlari soliq to'lovchilardan olingan hujjatlarni tekshirib, ularning to'g'riligi va haqiqiylikni aniqlaydi.

Ko'rinish nazorati: a) to'lovchilar bilan uchrashuv: Soliq inspektorlari soliq to'lovchilari bilan ko'rishib, ularning iqtisodiy faoliyati va soliq majburiyatlarini to'liq baholashadi; b) qayta tekshirish va monitoring: Muddatli tekshirishlar orqali soliq to'lovchilarning faoliyati va hisobotlari ulangan holda kuzatiladi.

Texnik nazorat: a) avtomatlashtirilgan tizimlar: Soliq organlari va to'lovchilar o'rtasidagi ma'lumot almashish tizimlari (misol uchun, soliq tizimlari, elektron hujjat almashish) orqali nazorat olib boriladi; b) ma'lumotlarni tahlil qilish: Soliq to'lovchilarning iqtisodiy faoliyati va daromadlari haqidagi ma'lumotlar kompyuter tahlillari yordamida tekshiriladi.

Ijro nazorati: a) qonunga zid faoliyatlarning tekshirilishi: Soliq to'lovchilarning faoliyati qonunga muvofiqi tekshiriladi va qonunbuzarlik holatlari aniqlanadi; b) sanksiyalar va jazo

choralari: To'lovchilarga nisbatan qonunga zidliklarni bartaraf etish uchun jazo choralari qo'llaniladi.

Ijtimoiy nazorat: a) jamoatchilik va jurnalistlar ishtiroki: Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari soliq tizimining samaradorligini baholashda qatnashadi, bu esa soliq organlarini hisobdorlikka majbur qiladi.

Bu shakllar soliq tizimini isloh qilishda samaradorlikni oshirish va soliq to'lovchilarning huquqlarini himoya qilishga yordam beradi. Har bir shaklning o'z o'rnini va ahamiyati bor, ularning muvozanatli va to'g'ri qo'llanilishi soliq tizimini yaxshilash uchun muhimdir.

Shu bilan birga, soliq tizimida ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek, soliq islohotlarini samarali amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan quyidagi kamchilik va muammolar mavjud:

birinchidan, soliq ma'muriyatchiligini tashkil etish prinsiplari eskirgan bo'lib, soliq to'lovchilarga kompleks xizmatlar ko'rsatishni, shuningdek ular tomonidan soliq majburiyatlarining ixtiyoriy bajarilishini ta'minlamayapti;

ikkinchidan, soliq majburiyatlarini bajarishda ma'muriy xarajatlar (sarflanadigan vaqt va mablag') darajasi yuqori bo'lib qolmoqda;

uchinchidan, soliq sohasida imtiyozlar berish borasida aniq mezon va mexanizmlarning yetarlicha emasligi;

to'rtinchidan, xufiyona iqtisodiyot darajasini qisqartirishga qaratilgan, shuningdek tadbirkorlik faoliyatini qonuniylashtirish jarayonlarini rag'batlantiruvchi jamoatchilik nazorati mexanizmlarining mukammal emasligi;


beshinchidan, soliq hisobi sifatini pasaytiradigan, soliq bazasining kengayishi va barqaror soliq tushumlarini ta'minlashga to'sqinlik qiladigan idoralararo axborot hamkorligi sust yo'lga qo'yilgan;

oltinchidan, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash sohasida hamda soliq organlari xodimlari faoliyatini baholashda tizimli kamchiliklar mavjudligi sohadagi nazoratni murakkablashtirmoqda.

Ushbu kamchilik va muammolar soliq tizimini jadal rivojlantirish, soliq nazorati samaradorligini oshirish hamda soliqlar va majburiy to'lovlarning talab darajasida yig'ilishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu munosabat bilan quyidagi maqsad, vazifa va asosiy yo'nalishlarni nazarda tutuvchi soliq nazoratini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish alohida ahamiyat kasb etib, kamchilik va muammolar soliq tizimini jadal rivojlantirish, soliq nazorati samaradorligini oshirish hamda soliqlar va majburiy to'lovlarning talab darajasida yig'ilishiga to'sqinlik qilmoqda.

Ishbilarmonlikni muhitini yaxshilashda soliq nazoratini yanada takomillashtirish va qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikni liberallashtirish muhim o'rin tutdi. Shu bois mamlakatimizda keyingi paytda bu borada adolatli, shaffof va uzoqqa mo'ljallangan tizimni yaratishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Buning natijasida butunlay yangi soliq ma'murchiligi yuzaga kelmoqda. Tadbirkorlar buning amaliy ta'sirini va natijasini avvalgiday chiroyli so'zlarda emas balki o'zlarining kundalik faoliyatida xis etmoqda. Bugungi kunda soliq turlarini qisqarishi va stavkalarining pasayishi bo'yicha birinchi navbatda soliqlar turi 16 tadan 9 taga, nazorat shakllari 13 tadan 2 taga qisqartirilishi shu bilan birga yaqin qacha tadbirkorlarga og'ir yuk bo'lib kelgan pensiya, maktab va yo'l jamg'armalariga 3,2 foizli yig'imlar bekor qilindi. Byudjetdan tashqari jamg'armalariga mazkur yig'imlarni bekor qilish hisobidan 7 mingga yaqin korxonalar har yili o'rtacha 6 trl. so'm soliq to'lashdan ozod bo'ldi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sish sur'ati esa 2023-yilda 7,4 %ni tashkil qilgan (1-rasm). Bu ham soliq to'lovchilarga yaratilgan keng imkoniyatlardan biri deb hisoblaymiz.



1-rasm. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sish sur'ati¹⁹

Demakki shuncha mablag' o'zlarida qoladi. Shuningdek mol-mulk, daromad va ijtimoiy soliqlar stavkalari 2 barobar kamaytirildi. Buni aniq misollar orqali ifodalaydigan bo'lsak, transport sohasida soliq yuki 3 barobar, oziq-ovqat sanoatida 2 barobar, to'qimachilik va elektr texnikasi sanoatida esa 20 foizgacha kamaydi.

Bugungi kunda soliq to'lovchilar soliq organlari oldida amalda ojiz, ularning ko'pchiligi nima uchun soliq to'lashga majbur bo'layotganliklarini tushunmaydilar. Soliq to'lovchilarning soliq to'lashga munosabati doimo noaniq bo'lib kelgan, soliqlarni aholini ko'p qismi salbiy qabul qiladi.

Soliq nazoratini optimallashtirish maqsadida soliq madaniyatini tarbiyalash va rag'batlantirish bo'yicha yanada chuqurroq, chora-tadbirlar ham muhim rol o'ynaydi. Ko'pgina mamlakatlarda mahalliy amaliyotda ommaviy targ'ibot deb ataladigan tadbirlarga ahamiyat beriladi. Bunday ishlar nafaqat soliq to'lovchilar, balki bolalar bilan ham amalga oshiriladi. Bu boradagi dasturlar maktablarda, hatto maktabgacha ta'lim muassasalarida ham joriy qilingan. Mamlakatimizda ham ta'lim muassasalarida o'quv bo'limlari bilan birgalikda bitiruvchilarni qayta tayyorlash bo'yicha dasturlarni yaratish, soliq madaniyati va soliq savodxonligini keng targ'ib qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, bunday dasturlar uchun soliq sohasidagi mutaxassislarni yuqori texnologiyali tayyorlash markazlari asos bo'lishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrda O'RQ-599-son Qonuni bilan Soliq kodeksining yangi tahriri qabul qilinib, soliq tekshiruvlarining yangi shakllari belgilandi.

Jumladan, Kodeksning 139-moddasida soliq tekshiruvlariga doir me'yorlar kiritilib, soliq tekshiruvlarini o'tkazish tartibi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanishi belgilangan. Soliq kodeksining mazkur moddasi va boshqa moddalarida belgilangan normalar asosida Davlat soliq qo'mitasining 2020 yil 18 maydagi 2020-16-son "Sayyor soliq tekshiruvlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilinib²⁰, Adliya vazirligida shu yil 18 iyunda 3247-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Mazkur qarorga asosan, Davlat soliq qo'mitasining ilgari qabul qilingan: Nizomning 2-bandiga asosan soliq organlari sayyor soliq tekshiruv doirasida quyidagilarni amalga oshiradi:

- soliq solish obyektlarini aniqlash;
- xronometraj kuzatuvlarini o'tkazish;
- nazorat-kassa texnikasi va hisob-kitob terminallari qo'llanilishini tekshirish;

¹⁹ <https://siat.stat.uz/reports-filed/584/line-data>.

²⁰ www.lex.uz – Ўзбекистон республикаси Қонун ҳужжатлари миллий базаси.

- soliq to'lovchi xodimlarining hisobotdagi va haqiqiy soni muvofiqligi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;
- bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash bo'lgan avtomobil vositalarining to'xtash joylarida soliq qonunchiligiga rioya etilishini tekshirish;
- savdo va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya etilishini tekshirish;
- soliq to'lovchidan asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag'lari va hisob-kitoblarni soliq to'lovchi (soliq agentlari) tomonidan xatlovdan o'tkazishni talab qilish va boshqalar.

Muhim masala soliq organlarining barcha darajadagi rahbar va mas'ul xodimlari tomonidan soliq tekshiruvdan oldin, tekshiruv jarayonida va tekshirishdan keyingi turli suiiste'molchiliklar va korrupsiyani keltirib chiqaradigan holatlarga yo'l qo'yilmasligi ustidan nazorat o'rnatilishi kerak (Fayzulloyev, 2022). Sababi, agarda soliq tekshiruviga doir birorta korrupsiya holatlariga yo'l qo'yiladigan bo'lsa, xodimning javobgarligi muqarrar ravishda ta'minlanishi bilan birga, kelgusida soliq organlaridan tekshiruv vakolati ham olib qo'yilishiga olib keladi.

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun rejadan tashqari va muqobil tekshirish tartiblari bekor qilindi, tadbirkorlar tomonidan beriladigan soliq hisobotlarning shakli va taqdim etish muddatlari soddalashtirildi.

Shu bilan birga, soliq nazoratini amalga oshirishda bir qator muammolar mavjudligi sababli davlat soliq xizmati organlari tizimini isloh qilishning quyidagi muhim yo'nalishlarini keltirib o'tish lozim:

- soliq nazorati jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish, soliq to'lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik subyektlariga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish;

- soliq solish obyektlari va soliq solinadigan bazaning o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog'liq bo'lgan ishonchli axborotini o'z muddatida taqdim etish bo'yicha mas'uliyatini oshirish;

- soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta'sirchan soliq mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish;

- makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish obyektlarini to'liq qamrab olish va soliq solinadigan bazani kengaytirishni ta'minlash bo'yicha samarali tadbirlarni amalga oshirish;

- faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining faoliyatini tiklashga har tomonlama ko'maklashish, past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarining moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish, o'zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo'l qo'ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish;

- soliq solish masalalari, shu jumladan respublika va mahalliy byudjetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish;

- kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, soliq organlarini yuqori ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega malakali xodimlar bilan to'ldirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish.

Bundan tashqari, xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida "sog'lom raqobat"ni ta'minlash va "xufiyona biznes" yuritishga barham berish maqsadida: soliq organlariga hisob-kitoblar haqidagi ma'lumotlarning onlayn rejimida berilishini ta'minlaydigan nazorat-kassa

mashinalarini qo'llash orqali naqd pul tushumi ustidan avtomatlashtirilgan nazorat tizimi joriy etilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki, soliq imtiyozlarini qo'llayotgan soliq to'lovchilar tomonidan soliq bazasini yashirish faktlari aniqlangan taqdirda, ular tomonidan qo'llaniladigan soliq imtiyozlari to'xtatilib, qonunchilikda belgilangan moliyaviy jarimalar qo'llash tartibi joriy qilish zarur.

Soliq to'lovchilarning huquqni suiiste'mol qilish alomatlariga ega bo'lgan qalbaki (ko'zbo'yamachilik uchun tuzilgan) bitimlar tuzish orqali ayrim operatsiyalarni yoki operatsiyalar ketma-ketligini amalga oshirish faktlari aniqlangan taqdirda, soliq tekshiruvlari soliq to'lovchini xabardor qilmasdan o'tkazish tartibi belgilash lozim.

Faoliyatni rivojlantirish nazoratini amalga oshirish soliq organlari faoliyatning to'g'ri bo'lishini ta'minlash uchun amaliy tadbirlar ko'radi. Bu tadbirlar soliq to'lovchilarning o'z faoliyatida qonuniylikka muvofiqlashtirishga yordam beradi.

Elektron hujjatlar almashinuvi, elektron deklaratsiyalar va onlayn monitoring tizimlari orqali soliq nazorati amalga oshirish kerak. Soliq nazoratini amalga oshirishda sun'iy intellekt va ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish orqali nazoratning samaradorligini oshirish mumkin.

Har bir nazorat shaklining maqsadi soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini aniq va to'g'ri bajarishini ta'minlash, soliq tizimini odil va samarali boshqarishdir. Ushbu shakllar soliq tizimini isloh qilish jarayonida o'z o'rnini topadi va iqtisodiy tartibni yaxshilashga qaratilgan muhim instrumentlardan hisoblanadi.

Adabiyotlar/ Литература/ Reference:

Awasthi R., Engelschalk M. (2018) *Taxation and the shadow economy: how the tax system can stimulate and enforce the formalization of business activities* //World Bank Policy Research Working Paper. – №. 8391.

Fayzulloev, M. (2022). *Davlat soliq xizmati organlari tomonidan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatida o'tkaziladigan sayyor soliq tekshiruvlarini tashkil etish masalalari. Академические исследования в современной науке*, 1(13), 223–226. извлечено от <http://www.econferences.ru/index.php/arims/article/view/381>

Khoruzhy L.I. et al. (2020) *Controlled foreign companies: Influence on the sovereignty of the national tax base* //Entrepreneurship and Sustainability Issues. –T. 8. – №. 2. – S. 33.

Mamajonov.L.A. et al. (2024) *Soliq nazorati samaradorligini oshirish* //Science Promotion. – T. 10. – №. 1. – S. 413-416.

Maxmatraemov Baxrom Omonovich (2024). *Mamlakatimizda soliq nazorati tartibidagi tekshiruvlar tashkil etish xorij tajribasining qiyosiy tahlili. Ta'limda Raqamli Texnologiyalarni Tadbiq Etishning Zamonaviy Tendensiyalari Va Rivojlanish Omillari*, 27(1), 134-138. <https://pedagoglar.org/index.php/01/article/view/238>

Tuymayev S. (2024) *Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliq tekshiruvlarini takomillashtirish* //new renaissance conference. – T. 1. – №. 2. – S. 88-94.

Djamalov X., Xudoyqulov S. (2023) *Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarning yangi tizimi sharoitida soliq nazorati* // Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – T. 3. – №. 5. – S. 112-118.

Долгобаева Д.А. (2019) *Формы налогового контроля: мониторинг как современная форма налогового контроля* // Актуальные проблемы менеджмента, экономики и экономической безопасности. – С. 117-121.

Isayev F. (2023) *Soliq tekshiruvlari: audit samaradorligi tahlili* //Economics and Innovative Technologies. – T. 11. – №. 1. – S. 394-401.

Фарикова Е.А. (2019) *Формы налогового контроля по современному российскому законодательству* //Современная научная мысль. –№. 5. – С. 198-202.

Valieva Sayyora Khushbakovna. (2024). Modern Tax Administration Implementation of Information and Communication Technologies. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(6), 155–159. Retrieved from <https://www.inovatus.es/index.php/ejbsos/article/view/3464>.

Jumaniyozova, F. (2024). Yangi O'zbekistonda soliq mamuriyatchiligini takomillashtirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning ustuvor yo'nalishlari. *Nashrlar*, 3(M), 271–273. <https://doi.org/10.60078/2024-vol3-issM-pp271-273>.